



**LEXICAL UNITS MARKED AS TURKISH IN PERSIAN EXPLANATORY  
DICTIONARIES  
(In the example of "Giyas-ul-lugat")**

***Khylatkhan Matlabovich Makhamadaliev***

*Associate professor, PhD*

*USUWL*

*Tashkent, Uzbekistan*

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** lexicographic sources, explanatory dictionaries, dictionary entry, lexical units, etymology, term, diacritics.

**Received:** 15.05.24

**Accepted:** 17.05.24

**Published:** 19.05.24

**Abstract:** In this article, Persian explanatory dictionaries created in India during the time of Zahiruddin Muhammad Bobur and the Bobur dynasty, including the famous work of his time "Giyas-ul-lugat" among the lexicographical sources, and the common Turkish and other languages in it, in particular, we talk about Turkish words borrowed from Chinese, Mongolian, Arabic, and Persian languages. The article also talks about the structure of "Giyas-ul-lugat", its publications and its author Muhammad Giyasuddin. The article focuses on the etymology of Turkish words in the dictionary and the fact that they also contain words found in the modern Uzbek literary language and its dialects. The lexicographer also shows the criteria for determining which language each word belongs to. In particular, he expresses his opinions about the origin depending on the source from which it was taken, the participation of the letters in it.

**FORSIY IZOHLI LUG‘ATLARDAGI TURKIY DEB TAKIDLANGAN LEKSIK  
BIRLIKLAR  
(“G‘iyos-ul-lug‘ot” misolida)**

***Xislatxon Matlabovich Maxamadaliev***

*dotsent, filologiya fanlari nomzodi*

*O‘zDJTU*

*Toshkent, O‘zbekiston*

---

**МАҚОЛА HAQIDA**


---

**Kalit soʻzlar:** leksikografik manbalar, izohli lugʻatlar, lugʻat maqola, leksik birliklar, etimologiya, termin, diakritik belgilar (harakatlar).

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XIX asrga qadar Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasi davrida Hindistonda yaratilgan forsiy izohli lugʻatlar, jumladan leksikografik manbalar ichida oʻz davrining mashhur asari boʻlmish “Gʻiyos-ul-lugʻot” va undagi umumturkiy hamda boshqa tillarga mansub, xususan xitoy, moʻgʻul, arab, fors tillaridan oʻzlashgan turkiy soʻzlar xususida soʻz boradi. Shuningdek, maqolada “Gʻiyos-ul-lugʻot” ning tuzilishi, nashrlari va uning muallifi Muhammad Gʻiyosuddin haqida soʻz yuritiladi. Maqolada lugʻatdagi turkiy soʻzlarning etimologiyasiga va ular tarkibidagi hozirgi oʻzbek adabiy tili va uning shevalarida uchraydigan soʻzlar ham mavjud ekanligi haqida toʻxtalib oʻtiladi. Lugʻatshunos har bir soʻzni qaysi tilga oidligini belgilashning mezonlarini ham koʻrsatib beradi. Jumladan, qaysi manbadan olinganligi, undagi harflarning ishtirokiga qarabkelib chiqishi yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini bildiradi.

---

**ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ПОМЕЧЕННЫЕ КАК ТУРЕЦКИЙ, В ПЕРСИДСКИХ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ**  
(На примере «Гийяс-ул-лугуот»)

*Хыслатхан Матлабович Махамадалиев*

*Доцент, канд. филол. наук*

*УзГУМЯ*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

<p><b>Ключевые</b> лексикографические источники, толковые словари, словарная статья, лексические единицы, этимология, термин, диакритические знаки.</p>	<p><b>слова:</b></p>	<p><b>Аннотация:</b> В данной статье рассматриваются персидские толковые словари, принадлежащие XIX векам, созданные в Индии во времена Захириддина Мухаммада Бабур и династии Бабур, в том числе, их известный труд своего времени «Гийяс-ул-лугат» среди лексикографических источников, а также обще турецкие и другие языки. В нем, в частности, речь идет о турецких словах, заимствованных из китайского, монгольского, арабского и персидского языков. Также в статье говорится о структуре «Гийяс-ул-лугат», ее изданиях и авторе Мухаммаде Гийасуддине. В статье основное внимание уделяется этимологии турецких слов в словаре и тому факту, что они также содержат слова, встречающиеся</p>
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

---

в современном узбекском литературном языке и его диалектах. Лексикограф также показывает критерии определения того, к какому языку принадлежит то или иное слово. В частности, из какого источника оно взято, в зависимости от участия в нем букв первоисточник высказывает свое мнение.

### **KIRISH**

Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasi davrida Hindistondajahon madaniyati tarixida muayyan millatning til boyliklarini namoyish etadigan, soʻzlar ganjini sharhi va izohlaridan iborat boʻlgan behisob tarixiy lugʻatlar yaratildi. Bobur va boburiylar sulolasi vakillari oʻz vatanidan yiroqda yashashlariga qaramay, ona tillarini saqlab qolish maqsadida astoydil harakat qilganlar. Bu esa Hindistonda eski oʻzbek tili va adabiyotiga boʻlgan ijobiy munosabat yuzaga kelganligini koʻrsatdi. Oʻsha davr ijtimoiy hayotida fors, arab, hind soʻzlari bilan bir qatorda turkiy soʻzlardan ham faol foydalanib kelingan. Bunga sabab xalq hayotidagi va harbiy ishga oid koʻpgina asboblar, tushunchalar, urf-odatni anglatadigan soʻzlarning turkiy ekanligi edi. Bobur Mirzo va uning atrofidagi turli toifaga mansub shaxslar, ularning avlodlari Hindistonda bunday soʻzlarni qoʻllashda faollik koʻrsatganlar. Natijada turkiy soʻz va terminlar Hindistondagi aloqa-aralashuv, yaʼni xalq tiliga singib ketgan. Bu esa lugʻatlar tuzish jarayonida turkiy soʻzlarni ham inobatga olishni taqozo etardi. Jumladan, misol tariqasida Roy Tekchandi Bahorning “Bahori Ajam”, Sirojiddin Alixon Orzuning “Charogʻi hidoyat” va “Siroj-ul-lugʻot”, “Lugʻoti turki”, Husayni Injuning “Farhangi Jahongiri”, Muhammad Lodning “Muayid-ul-fuzalo”, Muhammad Husayning “Burhoni qote”, Mullo Abdurashidning “Muntaxab-ul-lugʻot” kabi lugʻatlarni keltirish mumkin. Bobur va boburiylar Hindistonda 100 dan ortiq lugʻat va asarlar yaratib, eski oʻzbek tilining rivojlanishi, taraqqiyotiga katta hissa qoʻshdilar. Boburning eski oʻzbek tilida yaratgan asarlari (“Boburnoma”, “Hind devoni” sheʼriy toʻplami va h.) fikrimizning dalilidir. XIX asrga qadar yaratilgan behisob leksikografik manbalar ichida Muhammad Gʻiyosuddinning “Gʻiyos-ul-lugʻot”i oʻz davrining mashhur asari boʻlib, garchi Hindistonda fors tilida yaratilgan boʻlsa da, unda arab, fors, hind va yunon soʻzlari bilan bir qatorda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tegishli boʻlgan koʻplab turkiy soʻzlar ham mavjud (ular 1000 ga yaqin).

Ushbu lugʻatning muallifi Muhammad Gʻiyosuddin madrasa mudarrisi boʻlgan. Olim 14 yil tinimsiz mehnati natijasida 1242-yil hijriy (1827 milodiy)da Hindistonda “Gʻiyos-ul-lugʻot” asarini yaratdi. “Gʻiyos-ul-lugʻot” 17537 lugʻat maqolasini oʻz ichiga olgan forsiy izohli lugʻatdir. Muhammad Gʻiyosuddin manba sifatida foydalangan. “Gʻiyos-ul-lugʻot” bir necha bor Hindistonda, Toshkent va Kogonda ham nashr qilingan.

## ASOSIY QISM

Muhammad G'iyosuddin o'z lug'atida ba'zi so'zlarning etimologiyasiga ham to'xtaladi. "Etimologik tadqiqotning asosiy vazifasi shundan iboratki, so'zlarning haqiqiy morfosemantik tarkibi va ularning qurilishini aniqlash, qadimgi shakl va ma'nolarini yoki qaysi tilga mansubligini (kelib chiqishini) ko'rsatib berishdir", deydi mashhur olim E.V.Sevortyan [1, b.40]. Olim fikrini davom ettirib, so'zlarning etimologiyasini aniqlashda ba'zi qiyinchiliklarning kelib chiqishini, jumladan, biror voqelik atamasining yasaliishiga oid farqlovchi xususiyatlarni belgilash voqelik atamasining ichki ma'no qurilishini aniqlash va bu atamaning o'zak morfemasini ajratib bera olishda qiyinchilik tug'ilishini ta'kidlaydi. Etimologiyasi aniqlanayotgan o'zakka qo'shilgan affiksning kelib chiqishini ko'rsatish qiyin emas. Chunki bunday affiksga o'xshash shakllar u yoki bu so'z yasash modelida bo'lishi mumkin. Lekin o'zaklarning etimologiyasini ko'rsatish birmuncha muammolidir. So'zlarning etimologik tarkibini aniqlashda mavjud tildagi atamalarni boshqa til elementlari bilan qiyoslash katta rol o'ynaydi. Shundan kelib chiqqan xolda "G'iyos-ul -lug'ot"da keltirilgan turkiy so'zlarni o'rganishdan ma'lum bo'ldiki, lug'atdagi ushbu so'zlar tarkibida hozirgi o'zbek adabiy tili va uning shevalarida mavjud bo'lgan so'zlar mavjud ekan. Yana qiyoslang: at, ash, bash, qash, тыш, qalqan, qaymaq, äkä,қылыч, qayчы, bashlyq, it kabi so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida deyarli o'zgarishsiz ishlatiladi. Shu bilan birga altun-oltin, budag'-butoq, boxcha-bo'xcha, бычаq-pichoq, yana-yon, taraf, тоғуз-to'ng'iz kabi so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida ayrim fonetik o'zgarishlarga uchragan xolda qo'llanadi.

"G'iyos-ul -lug'ot"dagi turkiy tillarga xos bo'lgan bir qator leksik birliklarni XI asrda yashab o'tgan turkiy tillarning allomasi Mahmud Koshg'ariy yaratgan "Devonu lug'otit turk" hamda "Drevnetyurkskiy slovarь", "Boburnoma" va boshqa asarlarda uchratish mumkin. Fikrimizning dalili sifatida manbalardan misollar keltiramiz: jag'i- dushman (MK, III, 31), jagi-dushman (DTS, 224), jag'i- jaqi-dushman, yov (BN, 164).

"G'iyos-ul -lug'ot"dagi turkiy so'z va terminlarni boshqa tillar va hozirgi o'zbek tilida ishlatilishi darajasiga qarab, asosan, quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Umumturkiy so'zlar.
2. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar.
1. Umumturkiy so'zlar.

Umumturkiy so'zlar qadimdan mavjud bo'lgan va ayni paytda o'zbek tilida, boshqa turkiy tillarda ham uchraydigan, barcha turkiy tillar uchun umumiy o'zak bo'lgan lug'aviy birliklardir: tash, tag'a, bash, at, arslan, g'oz, j'zym, ayaq, tor, eshak, äkä, сыз, og'ul kabi.

2. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar.

"G'iyos-ul -lug'ot"da turkiy so'zlar deb qayd etilgan til birliklari ichida boshqa til elementlari ham uchraydi. Muhammad G'iyosuddin ularni ham turkiy so'zlar qatorida keltiradi.

Shunga qaramasdan, u ayni soʻzlarning haqiqiy kelib chiqishini, manbaini, yaʼni qaysi tildan oʻzlashganini ham koʻrsatib oʻtadi.

Biz lugʻatda muallif tomonidan turkiy deb taʼkidlangan, aslida turkiy boʻlmagan soʻzlarni quyidagicha guruhlashtirdik:

1. Xitoy tilidan oʻzlashgan soʻzlar.
2. Moʻgʻul tilidan oʻzlashgan soʻzlar.
3. Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar.
4. Fors tilidan oʻzlashgan soʻzlar.

Ushbu guruhlashtirish shuni koʻrsatadiki, turkiylar tarixdan xitoy, moʻgʻul, arab, fors xalqlari bilan yaqindan faol aloqada boʻlganlar. Natijada ayni xalq tillariga oid boʻlgan elementlar turkiy tilga oʻtgan, oʻzlashgan. Aslida bu jarayonda til taraqqiyotidagi ichki faktorlar, yaʼni har bir til sistemasiga xos boʻlgan ichki qonuniyatlar muhim rol oʻynaydi. Ayni vaqtda tashqi omillar ham, ayniqsa, muayyan til leksik qatlamining shakllanishida muhim oʻrin tutadi. Tashqi omillarni esa ijtimoiy hayot keltirib chiqaradi. Ijtimoiy hayotda qoʻshni qardosh tillarning yoki boshqa sistemaga mansub tillarning taʼsiri katta boʻladi. Bunda, ayniqsa, turli sistemaga oid tillarning taʼsiri katta boʻladi. Chunki bir-birini tushunish ehtiyoji juda kuchli boʻlgani sababli bir tildan ikkinchi bir tilga soʻzlarning oʻtishi juda oson kechadi. Hayotiy ehtiyoj, talab bir til elementining boshqa til lugʻat tarkibiga kirib, oʻzlashib, oʻziniki boʻlib ketishiga kuchli taʼsir qiladi. Endi “Gʻiyos-ul -lugʻot”da turkiy soʻzlar tarkibidagi xitoy, moʻgʻul, arab, fors tillariga oid soʻzlar tahliliga toʻxtalamiz:

1. Xitoy tilidan oʻzlashgan soʻzlar. Xitoy tilidan oʻzlashgan soʻzlar, asosan, harbiy unvon va mansablarni ifoda etadi. Masalan: xaqan (183)□□ -ulugʻ podshoh demakdir. DLT (III, 172) da xaqan, xoqon deb berilgan. Tilshunoslikda xaqan soʻzining etimologiyasi “ke” ulugʻ va “kuan” hukmdor degan maʼnolarni anglatuvchi xitoycha soʻzlardan iboratligi qayd etiladi [2, str. 110]. Prof. A.M.Shcherbak xaqan soʻzi turkiy obidalarda qagʻan shaklida ishlatilganini aytadi [3, III, b.14,8].

Tugʻ (133) – soʻzi ham xitoycha boʻlib “bayroq”, “nishon” maʼnolarini bildiradi. Bu soʻzning “bayroq”, “tugʻ” maʼnolarini ifodalashi Mahmud Koshgʻariyda uchraydi [4, III, b.140].

Tugʻ soʻzi birinchi bor Moʻyun-choʻr yodgorligida qayd qilingan [5, str. 17]. Qadimgi turkiy lugʻatda tugʻ soʻzining bir necha maʼnolari berilgan: tugʻ - bayroq, toʻsiq, alomat kabi maʼnolarni ifodalagan [6, str. 584]. Xitoycha “tugʻ” soʻzining “chang-toʻzon”, “dovul, nogʻora”, “toʻgʻon”, “tiqin”, “qopqoq” maʼnolarini ifodalashi “Devonu lugʻotit turk”da koʻrsatilgan [7, III, b. 140-141; I, 203]. Shatal (288) –choʻtal; Choʻtal – (xitoycha chota)-choʻtal; qimor, karta oʻyinlarida yutgan tomonidan olinadigan pul, ulush (foiz olish). Uygʻur tilida chota, chotuchi- choʻtal oluvchi. Shatu

(286) – shoti (narvon). Shoti-narvon. Bu soʻz xitoycha “shatang” soʻzidan olingan boʻlib, Fargʻona vodiysidagi deyarli barcha shevalarda shati, shoti, shoʻti kabi shakllarda keng qoʻllaniladi.

2. Moʻgʻul tilidan oʻzlashgan soʻzlar. XIII asrning birinchi yarmidan XIV asrning ikkinchi yarmigacha Oʻrta Osiyoda Chingizxon moʻgʻullari hukmronlik qilganlar [8, str. 26]. Bu esa oʻz navbatida moʻgʻul soʻzlarining turkiy tillarga kirib kelishiga va qorishib ketishiga sabab boʻldi. Lugʻatda moʻgʻul tilidan oʻzlashgan soʻzlar, asosan, harbiy qismlarni ifoda etadi. Sadaq (262) – “oʻqdon, sadoq”, sadagʻ, sdaq, sagʻdagʻ/sagʻdaq (BD, 1, 622); sagʻdaq (Nav, 571), sagʻdaq (BN, 164); чындавул (165) - аръergard (qoʻshinning orqasidan yuradigan soqchi toʻda); Alisher Navoiy asarlarida чындавул (Nav, 680), chagʻdavul, chandavul (BD, 1, 477), chagʻdavul “qorovul, soqchi” (BN, 208), chigʻdavul “dozor” (razvedkachi kichik grupp) (BN, 268); hiravul (548) – avangard (oldinda boruvchi toʻda); Bu soʻz Alisher Navoiy asarlarida ham (SI, XXVII, 158) uchraydi. Hiravul/iravul “avangard” (BN, 145); burungʻar (144)- “jangda podshohning oʻng tomonida turadigan qism”. Alisher Navoiy asarlarida ham bu soʻz qayd qilingan (SI, XXVII, 161), burungʻar “oʻng qanot” (BN, 335); jurungʻar (144) - “jang kuni podshohning chap tomonida turadigan qism”. Alisher Navoiy asarlaridajuvangʻar (Nav, 234) qayd qilingan, juvangʻar “chap qanot” (BN, 144); noyin/noyan (533) – amiri aʻzam; nÿkär (532) –navkar, xizmatkor; töshmääl (133) – oshxona boshligʻi, dasturxonchi; jÿldÿ (148) – sovgʻa, inʻom; qoshun (390) – qoʻshin.

3. Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar. Arab soʻzlari turkiy tillarga VII-VIII asrlarda kirib kela boshladi. Bu arablarning Oʻrta Osiyoga kirib kelishlari bilan bogʻliq boʻlgan jarayondir.

“Gʻiyos-ul-lugʻot”da arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar, asosan, mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Masalan: juq (157) – “toʻda, qushlar toʻdasi, jinlar toʻdasi”, qallash (394) - “nomsiz, uyat, xonavayron boʻlish, koʻngli qora odam, boʻydoq”; tal (167) – “baland yer, tepa, qoʻrgʻon”, tugʻra(319) – “xusnixat turlaridan biri”; qurʻi (399) – “chodir atrofini aylantirib bogʻlaydigan arqon”.

Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar baʼzi qoʻshma soʻzlarda ham uchraydi: alaqarÿ (350) – “baland darvoza; majoziy podshohlarning darvozalari”:aynati (355) – “uning ayn harflari”.

Muhammad Gʻiyosuddin “Qomus”, “Surox”, “Muntaxab”, “Kanz”, “Baxr-ul-javohir” kabi lugʻatlardan olingan soʻzlarni arabcha deb izohlaydi. “Jahongiri”, “Rashidi”, “Burhon”, “Siroj-ul-lugʻot”dan olingan soʻzlarning kelib chiqishini esa forsiy deb koʻrsatadi. Agar yuqorida keltirilgan lugʻatlardan tashqari boshqa kitoblar manba sifatida koʻrsatilsa, soʻz ikkala tildan birortasiga tegishli boʻlishi mumkin, degan fikrni bildiradi.

Muhammad Gʻiyosuddin soʻzlarning qaysi tilga mansubligini aniqlashda, hatto, soʻzlardagi harflar ishtirokiga, joylashish oʻrniga ham alohida diqqat qilish lozimligini toʻgʻri uqtiradi. Olimning taʼkidlashicha, agar soʻzda ق، ع، ظ، ط، ص، ض، ح، ث kabi 8 ta harfdan birortasi ishtirok etsa, bu soʻz arabcha boʻladi. Shuningdek, koʻrsatilgan harflarning soʻz boshi, oxiri yoki oʻrtasida

kelishi, ularning fatha, zamma belgilari bilan qo'llanishi kabilar ham so'zning arabcha ekanligini belgilaydi, deydi. Yuqoridagi fikrga e'tiroz bildirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, keltirilgan 8 harfdan biri bo'lgan (ق) nafaqat arab so'zlarida, balki turkiy so'zlarda ham uchraydi (ushaq, qash, aqcha kabi).

Lug'atshunos so'zlarning qaysi tilga oidligini belgilashning quyidagi mezonlarini ham ko'rsatib beradi: so'z oxiri to-i favqoni bilan tugab, oldidan fatha kelsa, so'z boshi hamzali alif bo'lib, oxirgi harfidan odin alif kelsa, shuningdek, so'z boshi hamzali alif yoki to-i favqoni hamda mim bilan kelsa arabcha bo'ladi. Agar so'z fikr, shukur, foil so'zlari kabi talaffuz qilinsa ham arabiy bo'ladi. Lug'atshunos forsiy so'zlarni aniqlashda yuqorida zikr etilgan alomatlardan birortasi bo'lmasa, unda so'z forsiy bo'ladi. Shuningdek, so'zda boi forsiy, jimi forsiy, zoi forsiy, kofi forsiy, vov, yo-ye majhul ishtirok etsa yoki uning oxiridan oldin bir yoki ikki harfi sukunli bo'lsa ham bunday so'z forsiydir.

4. Fors tilidan o'zlashgan so'zlar. Turkiy va tojik xalqlarining bir hududda birga yashashi, o'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari bevosita bir-birlarining tillariga o'zaro ta'siri va boyishiga imkoniyatlar tug'dirdi. "G'iyos-ul-lug'ot"da turkiy deb ta'kidlangan so'zlar ichida fors-tojik til elementlarining mavjudligi turkiy va tojik xalqlari orsidagi munosabatlarning rivojlanganligidan dalolat beradi. Quyida misollar keltiramiz:

arman (23) –ushalmagan orzu, armon; anbur/anbura (53, 55) – ombur, temirchilar omburi; tunban (131) – ishton, cholvor; bayram (93) – bayram; buta (89) – buta, kichik daraxt; gap (424) – gap, ibora; gulxan (429) – kulxona; lachak (437) – ayollar yuziga yopadigan parda; luch (440) – g'ilay, yalang'och; xarxasha (189) – bemavrid janjallashmoq; charqab (160) – ayollar libosining turi; shishak (302) – to'rt simli rubob. Fors tilidan o'zlashgan so'zlar ba'zi qo'shma so'zlarda ham uchraydi: oxkasmäandazi (19) – qaytma o'q otish; qabaqandaz (384) – nishonga urish.

### XULOSA

Forsiy izohli lug'atlarni tadqiq qilish jarayonida, xususan, "G'iyos-ul-lug'ot"dagi turkiy deb ta'kidlangan so'zlarning etimologik tarkibi nihoyatda rang-barangligi ma'lum bo'ldi. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, o'zaro aloqada bo'lgan xalqlarning tillari bir-biriga ta'sir etishi, bir-birini boyitishi uchun xizmat qilishini bunday o'zaro ta'sirning, ayniqsa, leksikada samarali bo'lishi har jihatdan xalqlarning o'zaro aloqalari, tillarning bir-biriga ta'siri bilan bevosita bog'liq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Севортян Э.В., Этимологический словарь тюркских языков. - М. Наука, 1974, 40-бет.
2. Менгес К.Г. Восточные элементы в «Слове о полку Игореве», - Л., 1979, стр.110.
3. Щербак А.М. Огуз-наме, Мухаббат-наме, М., 1959, 14, 8.
4. Махмуд Кошғарий, Девону луғотит турк III, 140-бет.

5. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии, -М.-Л., 1959, стр.17.
6. Древнетюркский словарь, -Л.: Наука, 1969, стр. 584.
7. Махмуд Кошғарий, Девону луғотит турк III, 140-141-бетлар; 1, 203-бетлар.
8. Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке, «Проблемы лексики староузбекского языка», -Т.: Фан, 1990, стр.26.